

OO‘QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI

Husniddin Tojiyev Baxtiyorovich

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola oo‘quvchilarda axborotlarni tizimli tarkiblashtirish texnologiyasining zamonaviy usullari va tamoyillari haqida yozilgan. Ma‘lumki, dars o‘qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars esa usullar orqali amalga oshiriladi. Usul deganda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan yo‘l tushuniladi; usul biror muammoni yechish, mavzuni o‘rgatish kabi maqsadlarga erishish uchun bilib tanlangan yoki shunga olib boriladigan yo‘ldir; usul o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmasini hosil qilish uchun o‘qituvchi tomonidan tanlangan yo‘ldir.

Kalit so‘z: pedagogika, texnologiya, ta‘lim texnologiyasi, o‘qitish, metodika, kreativlik, didaktika.

Kirish:

Hozirgi paytda usul, uslub atamalar bilan bir qatorda “metod” atamasi ham keng qo‘llanilmoqda. Aslida har ikkala atama ham bir xil ma‘noni bildiradi. Chunki “metod” yunoncha so‘z bo‘lib, “yo‘l” ma‘nosini anglatadi. 20-30-yillarda “Pedagogik ensiklopediya”da “Metod - qo‘yilgan maqsadga erishish uchun oldindan belgilangan yo‘l” - deb ta‘riflangan. Keyinchalik esa M.N. Danilov va B.P.Yesipovlar tomonidan metod tushunchasi o‘qituvchi va o‘quvchilarning ish usuli sifatida talqin etildi. 1978 yilda “Metod” so‘zining yunoncha tarjimasini “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li” kabi ma‘nolarni anglatadi. Filosofiya lug‘atida ushbu tushuncha umumiy tarzda “maqsadga erishish usullari” deya sharhlangan. Metod tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha sharxlangan[1]. Masalan, O.Roziqov va boshqalarning “Didaktika” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida berilishicha T.A.Ilina: “O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usuli”, V.A.Slastyonin: “O‘qituvchi va o‘quvchilarning kasbiy o‘quv tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan kasbiy harakat usuli”, S.K.Islamgulova: “O‘quvchining o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish shuningdek, ta‘lim darajasini oshirishga yo‘naltirilgan usul”, - deb ta‘kidlagan. Shunday qilib, metod tushunchasiga muayyan ma‘noda tartibga solingan faoliyat sifatida yuzaga keldi. Falsafada, adabiyotda metod faoliyatning muayyan maqsadlariga erishish sari olib keluvchi usullar yig‘indisi, deb ta‘riflanadi. Bundan ko‘rinadiki, usul metodning bir qismi hisoblanadi[5].

Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari asosiy o'rinni egallaydi. Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha, ta'lim metodi[34]: O'qituvchi va o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan o'zaro aloqador, ma'lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir. Bundan ko'rinadiki, ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo'naltirish yo'llarini anglatadi. YA'ni, ta'lim metodlari o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerak ekanligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi[6]. Demak, metod o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida tashkil etilayotgan o'qitish jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish usullari yig'indisi hisoblanadi[22]. Metodlar, jumladan, o'qitish metodlari bir kancha guruhlariga va nimguruhlariga bo'linadi. Xususan, hozirgi paytda o'qitish ishlarida og'zaki bayon etish metodi, ko'rgazmalilik metodi va amaliy mashg'ulotlar metodi keng qo'llanilmoqda. Bunda og'zaki bayon qilish metodi maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan bo'lib, undan barcha o'quv predmetlari bo'yicha ta'limning turli bosqichlarida foydalanish mumkin.

Tahlil va natija: Bunda ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali bayon qilinadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi. Og'zaki bayon qilish metodi o'quv materialini hikoya qilish, suhbat, tushuntirish, maktab ma'ruzasi, darslik va kitoblar bilan ishlash kabi ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ma'lumki, hikoya qilish o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid dalil, xodisa va voqealarni yaxlit yoki kislmlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir (bayon qilish I-IV sinflarda 10-12 dakika, V-VII sinflarda 15-20 dakika, VIII-IX sinflarda 30-355 dakika bo'lishi mumkin). Hikoya qilishda o'quvchilarning diqqatini mavzuga jalb etish, mavzu yuzasidan fikr yuritishlarini ta'minlash maqsadida ularga vaqti-vaqti bilan savollar berib borish va turli ko'rgazmalardan foydalanib borish katta ahamiyatga ega[7]. Pedagogik adabiyotlarda hikoyaning kirish, yakunlovchi kabi turlari tavsif etilgan[23]. Masalan, o'quvchilarni fanga oid o'quv materiallarini o'rganishga tayyorlash maqsadida kirish hikoyasi o'tkaziladi. Chunki yangi fan yoki uning biror bo'limi bo'yicha o'quvchilarda dastlabki tasavvurni hosil qilishda, ularni qiziqtirishda kirish hikoyasi muhim ahamiyatga ega. Yangi o'quv materialini o'quvchilarga yetkazish va ularning o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun esa bayon shaklidagi hikoyadan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi o'quv materialani to'lig'icha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlab boradi. Dars oxirida o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida yakunlovchi hikoya qilish mumkin. Og'zaki bayon qilishning suhbat usuli o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro mulokoti - dialog shaklida bo'lib, odatda savol-javob ko'rinishida o't - kaziladi. Bunda o'quvchilarga mavzu yuzasidan bir-biriga mantiqan bog'liq bo'lgan savollar beriladi va bu savollarga javob izlash hamda javob qaytarish

<https://conferencea.org>

yo'li bilan o'qituvchi bilan o'quvchilarning faoliyati o'zaro muvofiqlashadi, shuningdek, berilgan savollarga javob topish jarayonida o'quvchilar fikr yuritadi, shaxsiy fikrlarini bayon etadi, uni dalillashga va isbotlashga urinadi. Bu esa o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalarini takomillashtiradi. Bu usulning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya vaqtni tejash nuqtai nazardan eng samarador usullar sanalsa, vaqtni kup olishi suhbat usulining kamchiligidir[8].

Ma'ruza esa katta xajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etish usuli bo'lib, bunda o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan g'oyalar asosida bilimlarni muayyan izchillikda yetkazishga harakat qilinadi. Maktab amaliyotida ma'ruza kam qo'llaniladi, ya'ni o'quv materialini ma'ruza usulida bayon qilish asosan yuqori sinflarda amalga oshiriladi[24]. Og'zaki metoddan foydalanishda ko'rsatmalilik usuli muhim ahamiyatga ega. Bunga namoyish etish, illyustrasiya va ekskursiya (sayoxat)ni kiritish mumkin[9]. Namoyish etish usulida o'quvchilar hodisalar, jarayonlar, obyektlar bilan tabiiy xolatda, ko'rgazmali - hissiy tanishtiriladi. Bu usulning maqsadi o'quv materiallarini o'quvchilarning sezgi organlari (eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish, teri sezgilari) yordamida idrok qilish orqali uzlashtirilishiga erishishdir. Ilyustrasiya esa o'quvchilarga mavzuga oid hodisa, narsa, jarayonlarni tasviriy shaklda, ya'ni rasm, chizma, sxema, yassi modellar yordamida kursatishdir. Turli suratlar, jadvallar, rangli xaritalar, texnologik xaritalar, ish chizmalari, albomlar, atlaslar va boshqa shu kabilar illyustrasiya vositasi hisoblanadi. Qizqa qilib aytganda "Gipermediya kitoblar" (multimediya kitoblarning takomillashgan shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo'shimcha manbalarga ham (sharhlarga, atamalarning izohlariga, tuzatishlariga) murojaat qilish mumkin bo'lgan darslik) dan foydalanish ham keng qo'llanilib kelinmoqda. O'qitishda video usul ham muhim ahamiyatga ega. Videosul axborotni ko'proq ko'rgazmali o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, unda kodoskop, diaproyektor, kinoprojektor, televideniya, videomagnitofon, kompyuter texnikasidan foydalaniladi. Ayniksa, hozirgi paytda o'qitish jarayonida kompyuter texnikasidan ko'proq foydalanishga e'tibor qaratilmoqda[10].

O'qitishning yozma usullari o'quvchilarning yozma nutqi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, shu orqali ularning bilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. Bu usul yordamida ham o'quvchilarga "O'z'laringiz bilgan, ishlagan asbob va uskunalarining nomlarini yozing", deb taklif berishimiz mumkin. Bu usul orqali o'quvchi tartibsiz bo'lsa ham ozi ishlatgan asbob-uskuna, moslama va jixozlarning nomlarini yozib beradi. Bunda O'qituvchi o'quvchilarning bilish darajalarini bilib oladi va didaktik tahlil uchun foydalaniladi. Shu urinda o'quvchilarning yozma nutqi tekshiriladi va qaysidir ma'noda yozma nutqi shakllantiriladi. Bu maqsadda maktab amaliyotida yozma usublarning test, diktant, bayon, insho, hisobot kabi turlaridan foydalaniladi[11]. O'qitishning amaliy usullari o'quvchilarga

<https://conferencea.org>

berilgan nazariy ma'lumotlarni amaliy tadbikini kursatish maqsadida qo'llaniladi. Laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulot, mashq qilish, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar amaliy usullarga kiradi. Laboratoriya ishi usulida o'quvchi oldindan belgilangan reja asosida o'qituvchi rahbarligida tajribalar o'tkazadi. Bunday amaliy vazifalarni bajarish jarayonida o'quvchilar yangi bilimni anglaydi va tushunib etadi. Mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda mashq usuli aloxida ahamiyatga egadir. Chunki ish amallarini o'zlashtirish uchun ularni qayta-qayta takrorlash, ya'ni mashq qilishga to'g'ri keladi. Mashqlar sharxlangan, Og'zaki, grafik, laboratoriya - amaliy, ishlab chikarish-mehnat mashklariga bo'linadi[25]. Professor Y.K.Babanskiy: "Amaliy usublarning qo'llanish chegarasi keng bo'lib, ular topshiriqlarni tayinlash, ularni bajarishni rejalashtirish, natijani tekshirish, tuzatishlar kiritish, baholash kabi usullarni uziga qamrab oladi" - deb ta'kidlangan edi. Pedagogika fanida ta'lim metodlarini va usullarini tasnif etish masalalari ham aloxida muammo sifatida o'rganilgan. Turli yillarda faoliyat ko'rsatgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta'lim metodlari turlicha tasnif etilgan[12]. YA'ni, pedagogikada o'qitish usullarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar o'qitish usullarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olgan bo'lsa, ayrimlari esa o'qituvchi faoliyatini, uchinchi guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olgan. O'qitish usullariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy[26]. Chunki o'qitish usullari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, O'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish ishlari bilan bog'lik bo'lgan tushunchadir. Shu sababli ta'lim metodlarini tasniflash bo'yicha yagona yondashish mavjud emas. Didaktikada ta'lim metodlarini bilimlar manbai, didaktik maqsadlar, bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha farqlash mavjud. Ta'lim metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash sodda jarayon bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Masalan, taniqli pedagog olimlardan S.I. Perovski, YE.Y.Golant va boshqalar o'qitish usullarini tasnif etishda ta'lim manbalarini hisobga olishgan[13].

O'qituvchi nutqi, ko'rgazma qurol, darslik hamda qo'shimcha adabiyotlarni ta'lim manbai sifatida ekanligini O.Rozikov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Didaktika" o'quv adabiyotida alohida ta'kidlangan. Didaktikada ta'lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib, o'qitish usullarini tasnif etish g'oyasi ham mavjud. Masalan, Y.K.Babanskiy taxriri ostida chikarishgan o'quv qo'llanmasida berilishicha M.A.Danilov, B.P.Yesipovlar o'qitish usullarini qo'yidagicha tasnif etgan: bilimlarni o'rganishga oid usullar, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari, bilim va malakalarni tatbik etish usullari, ijodiy ishlash usullari, bilim va malakalarni mustaxkamlash, tekshirish usullari. M.N.Skatkin, I.Y.Lerner o'qitish usullarini tasnif etishda o'quvchilar faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni qo'yidagicha guruhlarga ajratgan: izohli ko'rgazmali usullar; qayta eslashga oid

<https://conferencea.org>

standart usullar; muammoli bayon usuli; evristik usul; ilmiy izlanish usullari[14]. M.I.Mahmutov “o‘qitish usullarini tasnif etishda o‘qitish usullari bilan o‘qish usullarini o‘zaro fikricha: o‘qitish va o‘qish usullari bilan o‘zaro qo‘shilib quyidagi o‘qitish usullarini hosil qiladi: xabar-umumlashtirish tipidagi usullar; izohli va eslashga oid usullar; kursatmali-amaliy usullar; izohli rag‘batlantiruvchi usullar; qisman izlanishga oid usullar; izlanishli usullar”. M.I.Mahmutovning “Muammoli ta’lim nazariyasi va amaliyoti” (Kozon, 1972) va “Maktabda muammoli ta’limni tashkil etish” (Moskva, 1977) nomli kitoblarida muammoli ta’lim to‘grisidagi karashlari umumlashtirilgan: “Biz ta’limning tipini aniqlashga o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri prinsipi nuqtai nazaridan yondashamiz”, - deb ta’kidlaydi u, - o‘qituvchining bilimlarni tayyor holda bayon qilishi yoki bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish yo‘li bilan bilimlarni o‘zlashtirishga qarab ta’limning dogmatic[27]. Qanchalik to‘g‘riligi tanqidiy tekshirib ko‘rilmay, haqiqat sifatida ko‘r-ko‘rona qabul qilingan qonun - qoida, fikr; aqida) ko‘rgazmali bayon, muammoli tiplari ajratiladi. Muammoli ta’lim zaminida o‘quvchilarning ijodiy faoliyati yotadi. Muammoli ta’limning uch ko‘rinishi ijodiy faoliyat turlari asosida ajratiladi: nazariy ijodkorlik o‘quvchilarning o‘zlari uchun yangi qoida, qonuniyat teoremani izlashi, topishi va asoslashi. Bu ko‘rinishdagi muammoli ta’lim nazariy ko‘rinishdagi ijodiy topshiriqlarni yechish yo‘li bilan amalga oshiriladi; amaliy ijodkorlik o‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq etish usulini egallash[15].

Yuqoridagi rag‘batlantirish va nazorat qilish usullari ham o‘z navbatida guruhlariga ajratilgan. Hozirgi paytda o‘qitish usullariga oid eng mukammal tizimlardan biri Y.K.Babanskiy tasnifidir. Shu bilan birga mazkur sohada O‘zbekistonlik olimlar ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar. Ta’lim tizimida o‘quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda[28] A.K.Munavvarov o‘z asarlarida o‘qitish usullarini og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, muammoli-izlanishli va reproduktiv (o‘zlashtirish darajasida bir turdagi masala yoki mashqlar (savollar) ni namunaga (tayyor yechib ko‘rsatilgan) qarab yechish usuli), induktiv ((lot. inductio to‘g‘rilash, tartibga keltirish) oddiydan murakkabga qarab fikrlash) va deduktiv, mustaqil ishlash, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini rag‘batlantirish va asoslash, kitob bilan ishlash usullariga ajratgan[16]. I.Tursunov va U.Nishonaliyevlar esa og‘zaki usullar (hikoya, o‘quv leksiyasi, suhbat); amaliy usullar; ta’limning muammoli kidiruv usullari (evristik va muammoli kidiruv suhbat); kitob bilan mustaqil ishlash kabi ta’lim usullaridan foydalanish haqidagi fikrlarni bayon etgan. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish usullari ham keltirilgan[29].

Adabiyotlar tahlili: Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ko‘pchilik tadqiqotchilar ta’limning muammoli, faol usullariga alohida e’tibor qaratgan. “Aslida ta’limning faol metodlariga xos ilk belgilar XIV-XVI asrlarda namoyon bo‘lgan. Buyuk

<https://conferencea.org>

gumanistlar - F. Rable, M.Manten, F.Bekonlar bilimlarni tayyor holda uzatilgan ma'lumotlar asosida emas, balki amaliy, tajriba, munozara orqali mustaqil o'zlashtirishni tavsiya etganlar. Keyinchalik ta'lim metodlari Y.A.Komenskiy, I.G. Pestalossi, F.A.Disterverg, Dj. Dyui, K.D. Ushinskiy, P.F.Kayerovlar tomonidan rivojlantirilgan. Ular didaktikada ilg'or, ya'ni bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish g'oyasini ilmiy jihatdan asoslaganlar. P.P. Blonskiy, S.T. Shaskiy, P.M. Kerjensev, A.K.Gastev, M.M. Rubinshteyn va boshqalar esa ta'limning sust metodlarini inkor etib, ta'lim jarayonida faol metodlar sifatida tadqiqotchilik, amaliy, laboratoriya, evristik hamda mantiqiy metodlarni qo'llashga da'vat etishgan"[30]. Shuningdek, o'yin, mehnat va o'qitish faoliyatlarining psixologik omillarini - bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish va o'zlashtirish holatlari, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy omillari, o'quvchining yosh va individual xususiyatlariga oid qonuniyatlar A.V Petrovskiy, M.G.Davletshin, N.N.Nechayev, E.G'oziyev va boshqa psixolog olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ta'lim jarayonida faol metodlarni qo'llash g'oyasi[17] XIV asrda ilmiy asoslangan bo'lsada, u 1950 yillardagina "uzluksiz ta'lim" tushunchasining qo'llanilishi bilan o'zining amaliy ifodastiga ega bo'ldi. Bugungi kunda innovasiyalardan muammoli va axborotli ma'ruza, vizual o'qitish (ikki nafar turli fan o'qituvchilari muayyan ketma-ketlikda bir mavzu bo'yicha darslarni tashkil etadilar) hamda matbuot konferensiyalaridan foydalanish tajribasi asosida ish ko'rilmogda[31]. Hozirgi paytda ham ta'limning faol usullarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalari ham muhim pedagogik tadqiqot obyekti hisoblanadi. Respublikamizdagi bir qator tadqiqotchi-pedagog olimlar tomonidan o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish masalalari ham atroflicha o'rganib kelinmogda. Shuni alohida qayd etish kerakki, keyingi paytda Respublikamizda ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha jiddiy ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmogda. Natijada bu sohada bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiya va boshqa qo'llanmalar yuzaga keldi[18].

Bularga, jumladan, M.Ochilovning "Yangi pedagogik texnologiyalar", B.L.Farbermanning "Ilgor pedagogik texnologiyalar", B.Ziyomammedov va Sh.Abdullayevalarning "Ilgor pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot", J.Tolipova va A.Forurovlarning "Biologiya ta'limi texnologiyalari", N.Saidaxmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar", J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari" kabi qo'llanmalari; O'.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot" nomli monografiyasi, O'.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi, "Ta'lim va texnologiya" nomli ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami va boshqa shu kabi adabiyotlarni kiritish mumkin[19]. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ayrim ishlar respublikamizdagi ko'pgina ta'lim muassasalarida o'tkazib borayotgan anjumanlarda ham muhokama etilib, pedagogik

<https://conferencea.org>

texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Respublikamizda nashr etilayotgan jurnal va gazetalarda ham bu sohada olib borilayotgan ishlar keng yoritib kelinmoqda[32]. Jumladan, O'.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik texnologiya taraqqiyoti va ta'lim nazariyasi muammolari, pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari, xususiy fanlarni o'qitish jarayoniga ta'lim texnologiyasini tadbik etish va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv masalalari atroflicha yoritilgan[20].

Xolosa: Maqolaning asosi bo'lib o'qitish texnologiyalari xizmat qilar ekan. O'qitish jarayonlarida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning qanchalik ta'lim jarayonida foydalanish vaqtida samarali va tizimli foyda keltirilishini aniq o'qitish texnologiyalariga, pedagogik texnologiyalarga va ta'lim texnologiyalariga ta'luqli adabiyotlarni bibliografiyalari tuzib chiqilgan holda o'rganish samarali ekan.

Differensiya (lot. Differentia – farq, tafovut) turlari o'quvchilarni guruhlariga ajratishga asos bo'ladigan xususiyatlar (asoslar) asosida aniqlanadi. Differensiyaning an'anaviy turlari umumiy va maxsus qobiliyatlar, qiziqishlar va loyihalananayotgan kasbga ko'ra differensiyalashdir (Biror narsani o'rganishda uning tarkibiy qismlarini bir – biridan farqlamoq; shu narsani tabaqalarga, tarkibiy qismlarga ajratish)[21]. Differensiyallash vertikal va gorizontalga bo'linadi. Vertikal differensiya yo'li bilan biz bolalar ta'lim va rivojlanishining har bir yosh bosqichida pedagogik paradigmalarning optimal birikmasini topishni nazarda tutamiz. Gorizontal differensiya yo'li bilan bolalarning individual psixofizik xususiyatlari, ularning qobiliyat va mayllarini maksimal hisobga olgan holda butun ta'lim jarayonini qurishni nazarda tutamiz. Shunday qilib, pedagogik paradigmalarning konfiguratsiyasini belgilovchi vertikal differensiya asosan yosh normalariga qaratilsa, gorizontallik bolalarning individual shaxsiy xususiyatlarini keng doirada hisobga oladi: shaxsning hissiy - irodaviy sohasidan bilishgacha. Ta'limni differensiyallashtirish o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini majburiy hisobga olish, ularni guruhlash shakli va tanlangan guruhlarda o'quv jarayonining turli qurilishini o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR:

1. B.L.Farberman "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". T.: "Fan". 2000 y
2. J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari"(Xalq-ta'limi xodimlari uchun qo'llanma).-T., "O'qituvchi", 2004 y
3. O'.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot".-T.: "FAN", 2005 y

4. D.Xudoyberganova, A.Hojiyev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”: - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-98 b.
5. Samadova, V. (2022). SIMILE IS ONE OF THE OLDEST FORM OF A SPEECH. Science and innovation in the education system, 1(4), 82-83.
6. Samadova, V. (2022). SIMILE IS A TYPE OF METAPHOR. Science and innovation in the education system, 1(4), 84-86.
7. Samadova, V. (2022). SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN METAPHOR AND SIMILES IN ENGLISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(4), 258-260.
8. Ashurkulovna AZ. ADVERTING TEXTS AND THEIR PHONETIC FEATURES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022 May 26;3(5):1248-55.
9. Ashurkulovna, A. Z. (2022). ADVERTISING TEXTS AND THE LANGUAGE OF ADVERTISING TEXTS.
10. Sattorova, M. D. (2018). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF TOLERANCE. Форум молодых ученых, (6-1), 43-44.
11. Sattorova, M. (2022). DIAGNOSTICS OF SOCIAL TOLERANCE OF STUDENTS. Science and innovation, 1(B5), 526-528.
12. Sattorova, M. (2020). Social tolerance is period demand. Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19), 1(03), 150-152.
13. Qizi, S. M. D. (2022). Socio-Psychological Views of Eastern Thinkers on Social Tolerance. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 219-220.
14. Erkinovna, N. D. (2021). Anxiety-as an emotional state. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2242-2245.
15. Шарафутдинова, Х. Г., & Нормуминова, Д. Э. (2020). Преодоление тревожности с помощью когнитивно-поведенческой психотерапии. Педагогическое образование и наука, (1), 124-127.
16. Sharafutdinova, K., & Normuminova, D. (2022). The role of cognitive psychotherapy in eliminating men and women's anxiety in the family. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1530-1535.
17. Bobonazarovna, A. S. (2022). INTERPRETATION OF STUDENTS'PROFESSIONAL FORMATION AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 149-150.
18. Almardonova, S. B. (2019). THE ROLE OF THINKING IN THE SPIRITUAL-PSYCHOLOGICAL FORMATION OF PERSONALITY. Научные горизонты, (4), 10-13.

19. Алмарданова, С. Б. (2020). Роль семейных отношений в формировании нравственно-психологических качеств личности. *European science*, (3 (52)), 115-117.
20. Sharafutdinova, K. (2022). Advantages of focusing on positive psychology in eliminating destruction of family relations. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 423-430.
21. Sharafutdinova, K. (2022). APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL METHODOLOGIES IN DIAGNOSIS OF PERSONAL DESTRUCTION.
22. Шарафутдинова, Х. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 231-236.
23. Gulyamutdinovna, S. K. (2021). Manipulative relationship of a destructive person in the family. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 175-179.
24. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(4), 957-964.
25. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 204-206.
26. Жумаева, Г. У. (2021). Психологические механизмы формирования профессиональных отношений будущего педагога. *Достижения науки и образования*, (4 (76)), 72-76.
27. Kultayeva, F. (2022, November). ERGONIMLARNING JAHON VA O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O 'RGANILISHI. In *E Conference Zone* (pp. 131-136).
28. KULTAEVA, Fazilat. "ANALYSIS OF ERGONOMIC UNITS AT THE ONOMASTIC LEVEL." (2022).
29. Fazilat KULTAEVA. (2022). STUDY OF ERGONYMS IN UZBEKI LINGUISTICS. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 11-14
30. Ra'no, T. U. (2017). Religious and social thoughts of the people of ancient India, Central Asia and Iran. *Himalayan and Central Asian Studies*, 21(1), 61.
31. Urazova, R. T. (2016). INTERPRETATION OF THE 31ST GATHA OF YASNAIN" AVESTA". *Himalayan and Central Asian Studies*, 20(4), 90.
32. Уразова, Р. Т. (2022, April). АНАЛИЗ УРОВНЕЙ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ ПО РЕЛИГИОЗНЫМ ИСТОЧНИКАМ (НА ПРИМЕРЕ АВЕСТА И РИГВЕДА). In *E Conference Zone* (pp. 183-185).
33. Турсунов, С. (2004). Сурхондарё тарихи. " Шарқ" нашриёт-матбаа акция дорлик компанияси Бош таҳририяти.
34. Турсунов, С. Н., Пардаев, Т. Р., Турсунова, Н. М., & Муртазоев, Б. (2015). Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шакилланиши ва таракқиёти тарихи.
- 35.